



## CHIROYLI NUTQIY MUOMALAMIZ MA'NAVIYATIMIZ BEZAGI.

2-son politexnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Kamalxodjayeva Muxtasarxon Kazimjanovna**

**ANOTATSIYA:** Ushbu maqola Professional ta'lismu assasalarida Ona tili va adabiyot o'qitishda va darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari mavzusini izchil yoritishga harakat qilindi. Maqolada bayon qilingan fikrlar Professional ta'lismarayonlarida foydalanishga tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** So'z birikmasi, nutq tuzilishi, mutq uslubi, nutq odobi, nutq madaniyati, nutqning boyligi, nutqning aniqligi, izchilligi, mantiqiyligi.

### KIRISH

“Ta'lism to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “O‘zbekiston Respublikasidagi uzlucksiz boshlang‘ich o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’limtizimini tartibga soluvchi normativ-huququiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan ona tili o‘quv fanidan davlat ta'lism standartlari (DTS) ishlab chiqildi.

DTS o‘quvchilarning ma'lumot saviyasiga qo‘yiladigan talabni, ona tili ta'limi jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talabdan kelib chiqib belgilaydi. Hozirgi davr talabi o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, uni og‘zaki va yozma ravishda bayon qilishga o‘rgatish, kommunikativ savodxonlikni ta’minlashdan iboratdir. ko‘pchilik hollarda ayrim o‘quvchilar ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish metodlari bilan ona tili o‘qitish metodlarining farqini, ularning maqsadlarini ochib berolmaydilar. Ana shu holatlarni nazarda tutib, aniq



xulosalar, zaruriy ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, talabalar u yoki bu hodisaning maqsadi yoki vazifasini belgilashda qiynalishmoqda. Shuning uchun maqsad va vazifani aniqlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi ko'rsatildi.

O'zbek tili bugungi kunda özbek millatining fikr almashuv quroli sifatida katta ijtimoiy vazifani ado etmoqda. Bu millat vakillarining ijtimoiy aloqasini toliq taminlashga xizmat qilmoqda. Bir soz bilan aytganda, ona tilimiz özbek xalqining har jihatdan kamol topishi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat özbek tili eng taraqqiy etgan tillardan biridir. Tilning taraqqiy etishida xalq olimlar, shoir va yozuvchilar, davlat arboblarining, öqituvchi va matbuot xodimlarining xizmatlarini alohida qayd qilish lozim boladi. Ayniqsa, tilshunos olimlarimiz va yozuvchilarimizning xizmatlari beqiyosdir. Ularning katta mehnati tufayli özbek tilining kòpgina sohalarida qat'iy mèyorlar belgilandi, til birliklarining aloqa jarayonidagi lisoniy namunalar tavsiya etildi, til taraqqiyotidagi kòpgina masalalar ilmiy nazariy asosga qoyildi. Shuning uchun ham ikkilanmasdan hozirgi zamon özbek adabiy tili, madaniyatini yuksak darajaga kòtarilganligini qayd qilish mumkin.

Tilimizda allaqachon mälum mèyorga tushurilgan juda kòp til birikmalarini nutqda qöllash jarayonida xatoliklarga yòl qøyilayotgani nutq madaniyatini jiddiy òrganish masalasini örtaga tashlaydi, chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish nutq madaniyatini har qachongidan ham rivojlantirish umum davlat ahamiyatiga ega bòlgan ijtimoiy masaladir.

Nutq madaniyati nima? Bu savolga asrimizning taniqli olimlaridan " Yuksak nutq madaniyati - bu fikrlarni til vositalari bilan tògri, aniq va tasirchan qilib bera olishdir. Tògri nutq deb esa hozirgi adabiy til mèyorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytildi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqat mèyorga rioya qilishdangina iborat emas. U yangi fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bòlib qolmasdan, birmuncha tasirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topa olish uquvini ham öz ichiga oladi"



Xullas, nutq madaniyati nutqiy tásirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, ötkirlik va ifodalilikni bildiradi.

Nutq sòzlovchi yoki tinglovchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi kòrinishi bòlib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham madaniyat, ham nafosat hodisasi sanaladi. Nutqiy chechanlik- notiqlik alohida qobiliyat, nutqiy sañat. Chinakam notiqlar notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda öz tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishiladi.

"Yaxshining so'zi moy, yomonning so'zi loy" deydi dono xalqimiz. Zero, xulq eng avvalo nutqda ko'rindi. Shunday ekan nutqingizni boy, so'zingizni moy qilishni istasangiz, so'zlashish san'atini puxta egallashga harakat qiling. Shunda so'zingizga qo'shib, o'zingiz ham yaxshi bo'lasiz.

Chin so'z- mo'tabar,

Yaxshi so'z- muxtasar. Alisher Navoiy .

Oz gapirmoq – hikmatga sabab, oz emoq sog'likka sabab. Og'ziga kelganni demak- nodonning ishi, oldiga kelganni yemoq – hayvonning ishi. Alisher Navoiy.

Demak, inson har qanday sharoitda ham kerakli so'zlarnigina aytishi, tiliga ortiqcha erk bermasligi lozim. Zero, "haqiqiy gapdonlik-kerakli hamma gapni aytishi va keragidan ziyod hech narsa demaslikdir."

Odatda muloqot jarayonida suhbatdoshjar jinsiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki ayollarning o'ziga xos "mahram gaplari" / Cho'lpon/ borki, ular bu gaplarni erkaklar huzurida zinhor – bazinhor gapirmaydilar. Shuning uchun ham qizlar asosan onalari bilan sirdosh bo'ladilar va onalariga aytgan ba'zi gaaplarini hech qachon dadalariga aytmaydilar. Ayollar nutqi erkaklar nutqi har jihatdan; tovushlar ifodasi, lug'at tarkibi, gap qurilishi kabi tomonlardan sezilarli darajada farqlanib turadi. Erkaklar nutqi ham qisqa va lo'ndaligi, bosiq va qat'iy ohangda ayttilishi va boshqa ko'p jihatlari bilan ayollar nutqidan farqlanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, Yaponiya mamlakatida 32 ta so'zlagan kishini ayollar toifasiga kiritishar ekan. Bu qoidaga o'zimizning ota bobolarimiz ham qat'iy rioxaya



qilganlar.Jumladan ,Cho'lponning "Kecha va kunduz" mashhur romanidan shunga oid quyidagi parchani o'qiyimiz; "Mingboshi odatda xotinlarga kalta gapirar,ular bilan ezilib o'tirishni o'z erkaklik sha'niga sig'dirolmas edi...".Xuddi shu asar qahramonlaridan biri Razzoq so'fi ham so'z qadriga yetadiganlardan; "So'fining bu bobda o'ziga ko'ra asosli maslagi bor; u o'zi bir maqtanib aytganday xotin –halaj oldida og'iz ochib til qaldiratishni ravo ko'rmaydi...

"Assalomu alaykum " kalomining qudrati shu qadar buyukki , buni anglab yetish uchun ma'nosidan bohabar bo'lmos'himiz lozim.Bu jumla aslida "As-salom alaykum" shaklida,ya'ni,"as" ajratib yozilishi kerak.Lekin bu so'zni qabul qilgan ko'pchilik xalqlarda qulaylik uchun chiziqchasiz "Assalom" shaklida qo'shib yozish odat tusiga kirib ketdi."Salom" so'zi "salomatlik ,tinchlik,xavf-xatarsiz,nuqsonsizlik,poklik- osoyishtalik, halos bo'lish, itoatkorlik,bo'ysunish,najot topish" kabi qator ma'nolarni bildiradi."Alaykum "kalomi ham ikki qismdan iborat.

Shunday qilib,<<Assalomu alaykum>>so'zi <<sizga salomatlik,tinchlik,osoyshtalik bo'lsin>>ma'nosida ishlatilib kelmoqda Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda sshunday naql bor;<<Bitta salom bilan beshta narsaga \_\_\_\_ o'zini yengilsezish,shon-shuxrat topish,qut-barakali, ilmli bo'lish va nihoyatda uzoq umr ko'rishga erishiladi>>.Buning yorqin misolini o'zbek xalq ertaklaridagi devlar huzuriga kelgan kishilarga<<Gar slaloming bo'lmaganda,ikki yamlab bir yutardim>>,deya afu etish hollarida ham ko'ramiz. Keyingi yillarda mahalliy rahbarlar va boshqa turli kasb egalari orasidan salomga alik olishni or deb biladiganlari ham chiqib qolayotganlari achinarlidir...

Ko'pchilik talabalar : „Biz o'zimizdan kattalarga bir, ikki, uch marta salom beramiz, ammo ular ko'pincha alik olmasdan o'tib ketadilar”,- degan fikrni aytishdi. Bunday holatga o'zimiz ham ko'p guvoh bo'lganmiz. Albatta, kattalardagi bunday beparvolik yoshlarni odobga chorlashimizga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Salomlashish borasidagi nuqsonlarimizdan yana biri qayerda, kimga qanday salom berishni bilmasligimizdir. Chunki hozir aksariyat yoshlar faqat tanish kishilari bilangina salomlashishni odat qilib olganlar. Hatto kollej, oliygohlardek katta ilm va odob maskanlarida ham talabalarning faqat o'zlariga darsga kiradigan (o'shanda ham imtihongacha) domlalarga salom berib, boshqa o'qituvchilar yonidan salomlashmasdaan o'tish hollari uchrab turadi. Buning uchun eng birinchi navbatda talabalarning ota-onalari, qolaversa, shu yerda ishlaydigan muallimlarning o'zları aybdordirlar. Chunkiqaysi ta'lim-tarbiya maskani bo'lmasin har bir o'qituvchi ilm bilan birga odob ham berib borishi lozim.

Quyida, yarim asrdan ko'proq vaqt muallimlik qilgan ToshDU professori bo'lgan, tajribali pedagog Rahimjon Usmonovning so'z, nutq, vainsoniy fazilatlar haqidagi ibratli fikrlari diqqatga sazovor, uni o'qib, yoshlar o'zlarining hayoti davomida unga amal qilib yurishsa foydadan holi bo'lmas edi.

Til bamisoli shunday nafis bir musiqiy asbobki, oqilu olimlar undan yoqimli va sehrli sado chiqarib, inson qalbini o'zlariga maftun etadilar, nodonlar esa noxush sado chiqarib, inson asabini qirg'ichlaydilar.

Og'iz bo'shlig'ida bir parcha et hammada ham bor, lekin u orqali so'z durlarini zebo talaffuz libosiga o'rabi ifodalash – ulug' san'at.

Solishtirma og'irligi katta bo'lgan elementlarning miqdori kam, qimmati esa ortiq bo'lganidek, qisqa va mazmunli nutq ham qadrli bo'ladi.

Ko'p sutni sig'dirish uchun katta idish kerak, lekin uning qaymog'ini esa kichkina idishga joylasa bo'ladi. Fikr ham shunday, asosiy mag'zini, qaymog'ini bayon etish ko'p vaqt olmaydi, ammo chuqur fikrlashni talab etadi.

Ba'zilar o'zlarini bilimdon qilib ko'rsatish maqsadia gajakdor va balandparvoz iboralarni ko'p ishlatib nutq so'zlaydilar, ulug' kishilar esa doim oddiy, ravshan va jozibali gapiradilar.

Tabiatning senga bergen eng ulug' in'omlaridan biri tilingdir. Undan oqilona foydalansang, boshinga baxt-u iqbol qo'nadi, bil'aks tashvish-u tahlika keltiradi.



Inson qayerda bo'lmasin u o'zining tashqi qiyofasi va xatti – harakati, muomala vositalari bilan odamlar nazarida va kuzatuv doirasida yashaydi.

Agar kishining ichki go'zalligi bir guliston bo'lsa, uning muattar hidi – uning madaniy muomalasidir

Ko'cha – ko'yda,jamoat joylarda biror xatti-harakat qilishdan oldin uning odamlarining kayfiyatiga ko'rsatadigan ta'sirini o'yla, chunki odamgarchilikning muhim mezonidir.

Yashab turgan o'lkang, oiling o'qib turgan bilim o'chog'ing bilan faxrlanib yashashga odatlanmog'ing lozim, chunki insondagi vatanparvarlik tuyg'usi ana shulardan boshlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.T.Jalolov.Go'zallik olamida.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1979.

"Ona tili" darsliklari (1–11-sinflar) – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan darsliklar.

Dilorom Teshaboyeva, G'ulom Karimov – "Ona tili qo'llanmasi"

Olimjon G'oyibov – "O'zbek tili nazariyasi"

Adabiyot (5–11-sinflar):

"Adabiyot" darsliklari (5–11-sinflar) – Turli mualliflar tomonidan yozilgan, XTV tomonidan tasdiqlangan.

T. Yo'ldoshev, A. Yo'ldosheva – "Adabiyotdan qo'llanma"

O'zbek adabiyoti tarixiga oid turkum kitoblar – Navoiy, Ogahiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek va boshqa yozuvchilarning asarlari.

Akademik litsey va kasb-hunar maktablari uchun:

"Ona tili" (10–11-sinflar uchun yangilangan darsliklar)

"Adabiyot" (10–11-sinflar uchun)



- "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" – G‘. Rahimov  
"Adabiyotshunoslik asoslari" – H. Sulaymon  
Oliy ta’lim uchun:  
"O‘zbek tili nazariyasi" – N. Mahmudov, A. Jo‘rayev  
"Tilshunoslikka kirish" – N. Mahmudov  
"Adabiyot nazariyasi" – B. Sarimsoqov  
"O‘zbek adabiyoti tarixi" (turkum darsliklar)  
"She’riyat nazariyasi" – B. Sarimsoqov, H. Sulaymon